



## MUQADDAS DINIMIZ BO'LMISH ISLOM DINIDA AYOL MADHI

Xolmurodov Islomiddin

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7298741>

### ARTICLE INFO

Received: 16<sup>th</sup> October 2022

Accepted: 21<sup>st</sup> October 2022

Online: 25<sup>th</sup> October 2022

### KEY WORDS

Ayollar madhi, "Qur'oni karim",  
Nabi (s.a.v.), Abu Lays  
Samarqandiy, Muso a.s.  
hikoyati.

### ABSTRACT

*Millatimiz tarixidan ma'lumki Islom dini biz musulmon turkiy xalqlarning qon-qoniga singib ketgan din hisoblanadi. Shu dinda mavjud bo'lgan eng qadri qadriyatlardan biri bu ayol kishini e'zozlash hisoblanadi. Maqolani yozishdan ko'zlangan maqsad esa, shu qadriyatlarimizning dinimizda tutgan o'rnini anglashga yordam berish hisoblanadi.*

Barchamizga ma'lumki, eng so'ngi va mukammal din bo'lmish Islom dini johiliyat davridan farqli ravishda inson hayoti va farovon turmush sharoitiga alohida e'tibor qaratgan din sanaladi. Unda insonning har bir qilgan amallari ahkom va arkon (qonun-qoida) ostida amalga oshiriladi. Bu qonun-qoidalar, avvalo, Qur'oni Karim so'ngra hadis va boshqa allomalar tomonidan yozilgan asarlarda keltirilgan. Bu kabi amallar sirasiga, albatta, ayollarga e'tibor, ularni e'zozlash va ularga zulm qilmaslik kiradi. Ayol har bir er kishi uchun juft qilib berilgan eng ulug' ne'mat hisoblanadi. Alloh taolo bu xususida Qur'oni Karimning 36-surasi bo'lmish "Yosin" surasidagi 36- oyatida shunday marhamat qiladi:

**"Yer undirib-o'stiradigan narsalardan, (odamlarning) o'zlaridan, va ular bilmaydigan narsalardan iborat barcha juftlarni yaratgan (Alloh har qanday ayb-u nuqsondan) pok Zotdir"**

Yuqoridagi oyatdan ma'lum bo'ladiki, Alloh taolo yaratgan maxluqotlarning inson

biladigan va hatto bilmaydigan maxluqotlarini ham juft qilib yaratgan. Alloh yaratgan barcha maxluqotlar borki, albatta, jufti ham mavjud bo'ladi. Bu maxluqotlar orasida eng mukarrami bo'lgan inson ham o'z jufti bilan yaratilgan va ularni bir-biriga mehr-oqibatli bo'lishga chorlangan.

Din olamida yuksak darajot hosil qilgan hamyurtimiz, faqih Abu Lays Samarqandiy (r.a.) hazratlari ham o'zining "Tanbeh ul g'ofilin" ("G'afatdan uyg'otish") asarida bunga alohida to'xtalib o'tgan. Jumladan Faqih Abu Lays Samarqandiy rahmatullohu alayh mazkur asarning "Xotinning eri ustidagi haqqi" bobida bu xususida shunday marhamat qiladi: Annas Ibn Molik(r.a.) rivoyat qilishlaricha Payg'ambar (s.a.v.)dan "Qaysi muminlarning imoni mukammalroq?", deb so'rashdi. Nabiy (s.a.v.) "Ahllari bilan yaxshi xulqda bo'lganlari", deb javob qildilar. Bu o'rinda "ahllari bilan" jumlasini orqali kishining ayoli va oilasi nazarda tutilmoqda.



Har qanday davrda ham ayol har bir musulmon er uchun qadrli va hurmatli sanalgan. Ayol kishi xoh onasi, xoh opa-singlisi, xoh o'z yori bo'lmasin har bir er kishi uchun misoli olmosdan ishlanib durlar bilan bezatilgan nur taratib zulmatni yorituvchi bebaho bir qandildir. Uni er kishi ehtiyotkorlik bilan qo'lida tutib yurmog'i lozim. Agar qandilni har qanday tashqi ta'sirdan himoya qilib, unga e'tibor bilan munosabatda bo'lsa, qandilning tarovati yanada ziynatlanadi, o'z nuri bilan har tarafni yoritadi. Aksincha, e'tiborsizlik bilan munosabatda bo'linsa, vaqtlar o'tib o'zining sof qiymatini yo'qotishi, va oxir oqibat shu holatda darz ketishi mumkin. Xuddi shunday har bir ayol o'ziga nisbatan mehr-muruvvat kutadi, chunki, qandil o'zidan nur taratib atrofni yoritisa, ayol o'zidagi tarovati bilan oila nomli muqaddas maskanni fayzlantiradi va charog'on qiladi. Uning ichki olamiga e'tiborda bo'linsa, tarovati yanada ziynatlanadi, sadoqati ortadi. Aksincha, e'tiborsizlik bilan munosabatda bo'lsa, qadrini bilmasa, ayol ham asl qiymatini yo'qotib, g'uborlanadi.

Dinimizda ayollarga har qanday holatda ham hurmat e'tiborda bo'lmoqlik lozimligi xususida juda ko'p o'rinlarda rivoyatlar keltirilgan. Jumladan, Faqih Abu Lays Samarqandiy tomonidan rivoyat qilingan bir voqeada shunday rivoyat qilinadi. Zikr qilinadiki, bir kishi Umar ibn Xattob oldiga xotinidan shikoyat qilish uchun keldi. Eshik yoniga yetganida Umar ibn Xattobning ayoli Ummu Gulsumning ul zotga qattiq gapirganligini eshitdi. Haligi kishi: "Men xotinimdan shikoyat qilish uchun kelgan edim, bu kishida ham mendagiga o'xshash g'am bor ekan", deb o'ylab, ortiga qaytdi. Umar (r.a.) uni ko'rib qoldi-da, chaqirdi va nima uchun kelganligini so'radi. Haligi kishi:

"Xotinimdan shikoyat qilish uchun kelgan edim, ammo xotiningizning so'zlarini eshitib ortga qaytdim", dedi. Shunda Umar (r.a.) aytdi: "Menda uning haqqi bo'lganligi uchun qilmishlarini kechib yuboraman. Avvalo, u men bilan duzax orasini to'sadi, u tufayli qalbim haromni xohlamaydi. Ikkinchidan u mening xazinabonim, agar uydan chiqsam, qo'riqchimdir. Uchinchidan u mening kiyimlarimni yuvib tozalaydi. To'rtinchidan u farzandlarimni tarbiya qiladi. Beshinchidan, u men uchun non pishiradi, taom tayyorlaydi". Keyin haligi kishi: "Mening ayolim ham sizniki kabi. Siz kechiribsiz, men ham kechiraman," dedi. Bundan ma'lum bo'ladiki, ba'zi ayollar yo bilib yo bilmasdan o'z erlariga qattiq gapirib qo'yadi. Ammo shunday vaziyatda er kishi sabr-toqatli bo'lmog'i lozim. Chunki ayol kishi o'z eri uchun o'nlab, yuzlab va hatto minglab amallarni bajarishga tayyor bo'ladilar va, albatta, aksar hollarda ayollar bu kabi amallarini eriga aytishdan hayo qilishadilar va boriga sabr qiladilar.

Ayol kishi haqida so'z borar ekan, barchamizning xayolimizga eng birinchi navbatda onamiz keladi. Shu o'rinda ko'plab muhaddislar tomonidan zikr qilingan va "Tanbeh ul g'ofilin"da ham kelgan bir hadisni keltirib o'tamiz: Bahz ibn Hakim bobosidan rivoyat qiladi. Aytdilar: "Yo Rasululloh! Kimga yaxshilik qilayin?" Aytdilar "Onanga!" "Keyinchi?" "Onanga!" Aytdim: "Keyinchi?" Aytdilar: "Onanga!" Aytdim: "Keyin kimga?" Aytdilar: "Otanga, keyin yaqin qarindoshlaringa".

Biz ushbu hadisni juda ko'plab asarlarda o'qiganmiz. Ammo "Tanbeh ul g'ofilin" asardagi "Ota-onaning haqqi" nomli o'n birinchi bobida ushbu hadisdan avval Muso alayhissalom rivoyati keltiriladi. Unda Faqih Abu Lays Samarqandiy (Alloh taolo rahamat qilsin)



Atodan rivoyat qiladi: Muso alayhissalom aytdi: “Ey Robbim, menga buyirgin!” Alloh aytdi: “Seni o’zimga bo’ysunishga buyurgayman!” Muso alayhissalom aytdi: “Yana buyurgin!” “Onanga yaxshilik qilishga buyuraman” Muso alayhissalom yana aytdi: “Yana buyurgin!” “Onanga yaxshilik qilishga buyuraman” Muso alayhissalom aytdi: “Menga vasiyat qilgin!” Alloh aytdi: “Onanga vasiyat qilaman!” Aytdi “Yana vasiyat qilgin” Alloh aytdi: “Otanga vasiyat qilaman!” bundan ko’rinadiki, bizlarning onani e’zozlashimiz, ularning mehrini qozonish uchun jidd-u jaht bilan harakat qilishimiz lozimligi nafaqat Rasuli akram sallalohu alayhi vasallam hadislarida keltirilgan, balki, Alloh taolo tomonidan ham marhamat qilingandir. Bundan tashqari ushbu hadislardan har qanday yaxshilikni eng avvalo onaga qilish lozimligi va dastlab onaning duosini olish lozimligi ta’kidlanadi. “Duoni qaysi tilda qilishning ahamiyati yo’q va u talab qilingan narsaga erishishni taqazo qiluvchi sababdir”<sup>1</sup> “Muqaddas oylar va mustajob duolar” asarining “Duolari qabul bo’ladigan insonlar” bobida Payg’ambaimizdan (s.a.v.) rivoyat qilingan hadislarda duosi qabul qilinadigan insonlarga eriga itoat qiladigan mo’min ayolning duosini ham ta’kidlab o’tadi.

Shu o’rinda duo olish xususida xalqimiz orasida mavjud bo’lgan ba’zi tushunmovchiliklar haqida ham to’xtalib o’tishimiz lozim. Bilamizki, xalqimizda ikki xil qarash mavjud. Ba’zi insonlar “Duo taqdirni o’zgartiradi”, deyishsa, qolganlari “Taqdir azaldan bitib qo’yilgan. Uni o’zgartirib bo’lmaydi”- deyдилar. Bu qarama-qarshilik, albatta, o’rinli va bir qarashlarda har ikkala fikr ham to’g’ri. Ammo shuni bilingki, inson taqdirining duo bilan o’zgarishining o’zi unga azaldan bitib

qo’yilgan taqdirdir. Taqdirlarni o’zgartiradigan va biz uchun eng maqbuli bo’ladigan duo onalar duosidir. Biz shu duolar uchun qilgan mashaqqatlarimiz orqali Jannat nomli maskanga kira olamiz. Shu boisdan bo’lsa kerak hadisi sharifda ham “Jannat onalar oyog’i ostidadir” deya marhamat qilinadi.

Hasan Basriy (r. a.) Payg’ambar (s.a.v.) dan rivoyat qiladi: “Xotinlar bilan yaxshi muomalada bo’linglar, chunki ular sizlarning oldilariningizda yordamchi, nafslari uchun hech narsaga molik emaslar. Ularni Allohning omonati deb olingiz...”

Bu hadisda barcha muminnlarga xitob qilib, ayol kishiga muruvvtli va mehribon bo’lishga chaqirilish bilan birga ayollarga ham ichki xitob bilan murojad keltirilgan. Hadisning davomida “Ular sizlarning oldilariningizda yordamchi, nafslari uchun hech narsaga molik emaslar,” deyilmoqda. Ya’ni ayol kishi haqiqiy mehr-oqibatni topmoqchi bo’lsa, o’z erlariga oila ishlarida yordamchi bo’lmog’i, hech narsaga molik bo’lmasliklari lozim

O’zbek xalqi azal-azaldan sof islomiy mafkura negizida tarbiyalanib, unga amal qilib kelgan. Bugungi kunga kelib O’zbekistonda ham inson manfaatlari islohatlarning bosh omili sifatida qaralmoqda. Ayollarga hurmat-e’tibor xususida so’z borar ekan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o’tishimiz maqsadga muvofiq:

“Biz xalqimiz roziligini, avvalo, siz muhtaram onalarimiz, opa-singillarimizning roziligi deb tushunamiz. Sizlarning sog’-salomat bo’lib, baxtli bo’lib yashashingizni amalga oshirayotgan barcha-barcha islohatlarimizning asosiy maqsadi va mezoni deb bilamiz. Bu yo’lda erishgan natijalarimiz faqatgina birinchi qadamlargina bo’lib, sizlarning qo’llab-



quvvatlashingiz, duolaringiz, hech bag'ishlaydi".  
shubhasiz, bizga cheksiz kuch-g'ayrat

## References:

1. Aloviddin Mansur : "Qur'oni Karimning o'zbekcha tarjimai". "Cho'lpon" nashriyoti – Toshkent- 1992;
2. Abu lays Samarqandiy "Tanbeh ul g'ofilin". Qayta nashr.G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2017
3. Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom Inistituti: Sog'lom e'tiqod-mu'minga najot. "Sharq " nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent -2014.
4. Islom Enseklopediyasi "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat milliy nashriyoti Toshkent – 2017.
5. O'zbekiston Musulmonlar idorasi : "Muqaddas oylar va mustajob duolar". "Movoraunnahr" nashriyoti – Toshkent-2005.
6. "TERMEZ UNIVERSITETI" gazetasi. 5-son 2019-yil 15-mart